

NURALI QOBIL IJODIDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIY G'UYAVIY XUSUSIYATLARI

Jalilov Shohzod Javharalizoda

Farg'ona davlat universiteti o'zbek adabiyotshinoslik magistranti

Annotatsiya: Nurali Qobul 1950 yil 2 yanvarda Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi O'smat qishlog'ida tug'ilgan. Farg'ona Davlat universitetini tarix fakultetini tamomlagan (1974). «Oyqor» (1978), «Salom tog'lar» (1979), «Odam, Oyqortog' va Daydi shamol hakida ertak» (1980), «Tubsiz osmon» (1981), «Kaptarlar qaytmagan tun» (1984), «Yashash uchun kechikma» (1985), «Unutilgan sohillar» (1988), «Oq kaptarlar» (1990), «Bug'doy pishig'iga yetmaganlar» (1992), «Sen vatansan, muhabbat» (1994), «Vatandan yaxshi yor o'lmas» (1995) va boshqa asarlari nashr etilgan. G. Markesning «Tanholikning yuz yili» romanini, Ch. Aytmatovning «Bolaligim» asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Kalit so'zlar: Iste'dodli yozuvchilardan biri Nurali Qobul (Nurali Qobulovich Xolbo'tayev) 1950-yilda Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi O'smat qishlog'ida tug'ilgan. 1974-yilda Farg'ona davlat pedagogika oliy bilimohining tarix bo'limini tamomlagan.

Shundan so'ng tuman, viloyat komsomol va partiya rahbarlik ishlarida ishlangan. 70-yillardan boshlab jurnalist sifatida tuman, viloyat ro'znomalarida, aniqrog'i "G'alaba bayrog'i", "Jizzax haqiqati" ro'znomalarida turli lavozimlarda faoliyat olib borgan. So'ngra Toshkentga kelib, "Sovet O'zbekistoni san'ati"(1977) oynomasida muharrir o'rinbosari, keyinroq bosh muharrir bo'lib ishlagan. Hozirgi kunda "Cho'lpon" nashriyoti rahbaridir. Nurali Qobulning adib sifatidagi ijodi, asosan uning Toshkentdalik paytiga to'g'ri keladi. Avval hikoya, qissalar yozib, ro'znoma va oynomalarda ko'rina boshlaydi. Uning qissa va hikoyalardan iborat "Oyqor"(1978), "Salom tog'lar"(1979) kabi to'plamlari ketma-ket paydo bo'ladi. Har ikki to'plam ham kitobxonlar va adabiy tanqid tomonidan qizg'in baxslarga sabab bo'ldi. Unda urush davri fojealari, urf-odat va oilaviy kelishmovchiliklar, yoshlar taqdiri va sevgisi haqidagi falsafiy mushohadalar o'quvchi qalbini to'lqinlantirgan edi. Eng muhimi, undagi adolatparvarlik sari intilish, sof sevgiga sadoqat, kattalarga hurmat, asar qahramonlariga nisbatan iliqlik uyg'ota olishdir. Shundan so'ng yozuvchining yana o'ndan ortiq she'riy, nasriy asarlari chop etildi. Jumladan, "Tubsiz osmon"(1981), "Yashash uchun kechikma"(1983) kabi qissalarida yoshlar taqdiri, kelajagi yo'lidagi kurashi, orzu-intilishlari yana baxslarga yetaklaydi. "Adibning "Kaptarlar qaytmas-kuya"(1983), hikoya va qissalar to'plami, "Unutilgan sohillar"(1988) kabi romanlarida endi faqat adibning mavzu doirasigina kengayib qolmay, hayot, odamlar haqidagi falsafiy qarashlarining tobora real, chuqur ko'rinishga 39 kirayotganligidan ham dalolat beradi. Shuningdek, bolalar uchun yozilgan "Odam, Oyqor tog' va daydi shamol"(1980) she'riy ertagi yaratildi. Adib publitsist va tarjimon sifatida ham barakali ijod bilan band. Uning "Bug'doy pishig'iga yetmaganlar"(roman va qissalar, 1992) yoki "Vatandan o'zga yaxshi yor bo'lmas"(1992) kabi publitsistik maqolalar to'plamlari ham alohida e'tiborni tortadi.

Tarixiy shaxslar xarakteridagi ibratli qirralarni o'rganish, tarixiy voqealar hamda buyuk shaxslar hayotidagi davrlar sinovidan o'tgan, mashhur tarixiy siymolarning badiiy adabiyotdagi obrazini tadqiq etish adabiyotshunoslik fanining dolzarb vazifalaridan sanaladi. Binobarin, Amir Temur obrazini tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan o'rganib, uni badiiy talqin etishda ijodkorlar erishgan yutuqlarni tahlil qilish ham adabiy jarayon rivoji bilan bog'liq muhim xulosalar beradi.

Mustaqillik bergan imkoniyatlar tufayli o'zbek adabiyotida Amir Temur obrazini yaratishga alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Xususan, bu borada, hikoya janrida yozilgan asarlar ham bunga yorqin dalildir. Misol tarzida murojaat qiladigan bo'lsak, atoqli adib Asqad Muxtorning "Insonga qulluq qiladurmen" hikoyasining kompozitsiyasi jahongir Amir Temur va oddiy nag'masoz Ayri Qo'buz o'rtasidagi mubohasaga asoslanadi. Albatta, bu kichkinagina asarda Amir Temur xarakterining barcha qirralari yorqin va tiniq ochilishi qiyin. Ammo yozuvchi Amir Temur xarakterini katta mahorat bilan yaratadi. Yozuvchi talqinidagi Amir Temur siymosi tarixiy haqiqatga, nihoyatda, yaqin. Ijodkor Amir Temur hayotining har bir lahzasini kitobxon ko'z o'ngida namoyon etish uchun shunday ramziy belgilar topadiki, ular asnosida, ya'ni, Ayri Qo'buz navolaridan ramziy belgilar orqali o'z qahramonlari timsolini aks ettiradi. Belgilar orqali qahramonlar dunyosida paydo bo'ladigan obrazlar mantig'ini majoziy ravishda tasvirlab qo'yadi.

Amir Temur bilan Ayri Qo'buz o'rtasidagi mubohasadan ko'zda tutilgan maqsad shuki, bunda, Amir Temurning tarix oldidagi xizmatlari, markazlashgan davlat tuzganligi, go'dakligi haqidagi afsonalarga bo'lgan munosabat yarq etib ko'zga tashlanadi. Tahlil uchun suhbatdosh Ayri Qo'buzning quyidagi dono fikrlariga e'tibor qaratdik: "Baribir, el, Amir Temur Alloh taoloning barguzidasidur, derlar. Zero, Zuhul ila Mushtariy burjida tavallud topibsenkim, Allohi muborak yeru ko'kni shul soatda yaratmishdir. Nujumotning bu holati har sakkiz yuz yillikda bir kelurkim, alarning chehrasida nuri ilohiy zuhur o'lg'ay. Avvalo, Iskandari Zulqarnayn, andin so'ngra, Muhammad Alayhissalomuvassalam va dag'i sen, qiblagoh".

Oddiy nag'masoz bilan Amir Temur suhbatlari orqali yozuvchi hayot falsafasini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Ayri Qo'buz olamda barcha narsa omixta, deydi. Amir Temur qarashlarida burilish yasagan tungi navolar ham olam sehriga omixta, deyiladi. Amir Temurni bir vaqtlar shafqatsiz, toshyurak, jallod, qonxo'r, deb, jar solganlarga, javob tariqasida, yozuvchi quyidagi ishonarli detaldan mohirona foydalangan: "Mana, sen jang oldidan Qur'oni masjiddan varaq ochib, oyat o'qursen, – deb davom etdi Ayri Qo'buz, – mening hayotim seni taammulga solur. Qariyalar so'zidin bu holga tushding. Inchunin, bag'ritosh emassen. Menga shu kerak. Bir umr joni huzur-halovat ko'rmay, jangu jadal, qonli qironlardan diydau bag'ri tosh qotgan bu insonning ko'nglini sal bo'lsa ham yumshatish niyat edi bu devonag'a. Jahongirlarga bosh egmadim, insonga qulluq qilurmen, dedi, shoir".

Yozuvchi Amir Temur xarakteriga bermoqchi bo'lgan tavsifni Ayri Qo'buz o'z tili bilan ifoda qiladi. Ayri Qo'buz hatto o'z o'limini Amir Temurni bir gunohdan asrab qoldi, deydi. Bu bilan Amir Temur shaxsining buyukligini kelajak avlodga ko'rsatmoqchi bo'ladi. Baxshi ichki dunyosi bilan hikoyadagi Amir Temur xakteri orasidagi tafovut unchalik katta emas. Ayri Qo'buzning so'nggi so'zlaridan: "Ko'p jahongirlarni ko'rdim, ammo men ularga bo'ysunmayman. Qayga borsam, o'zimdan iloji boricha yaxshi nom qoldirishga harakat qilaman. Jahongirga emas, insonga qulluq qiladurmen", degan ma'no anglashiladi. Voqealar rivoji davomida Ayri Qo'buz xarakterida qo'rqinch, hayrat, shaddodlik xislatlari namoyon bo'ladi. Ayri Qo'buzning so'nggi so'zlarini eslagan Amir Temur undan xayolan nimani yashirib ketding, deb so'raydi. Ayri Qo'buz oldinda uni ajal kutayotganligini karomat qila olmaganini sezadi. Bu bilan yozuvchi oxir-oqibat ulug'lar, daholar joyi ham bir siqim tuproq bo'lajagini, shu bois, umrni bekor o'tkazmay, insonni o'zidan biron-bir iz qoldirishga chaqirmoqchi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Temur tuzuklari", "shodlik" nashriyoti. Toshkent – 2019-yil
2. "O'zbek hikoyalari antologiyasi", "Sharq" nashriyot-matbaa kontsernining bosh tahririyati. T – 1997
3. "Adabiyotshunoslik nazariyasi", A.Ulug'ov, G'.G'ulom NMIU, T – 2018